

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI  
ELLIKQAL’A TUMANI  
HOKIMI QARORI**



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ  
QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ  
ELLIKQALA RAYONÍ  
HÁKIMI SHESHIMI**

2022 - yil 25 - yanvar

22-13-194-Q/22

Ellikqal’a tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-dekabrda­gi “Tomorqadan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-54-sonli hamda shu xususidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021 yil 22 dekabr kungi 219-13-0-Q/21-sonli qarorlari haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-dekabrda­gi PQ-54-sonli hamda shu xususidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021 yil 22 dekabr kungi 219-13-0-Q/21-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi qonunning 6,25-moddasiga asosan

**Q A R O R   Q I L A M A N :**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-dekabrda­gi “Tomorqadan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-54-sonli hamda shu xususidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021 yil 22 dekabr kungi 219-13-0-Q/21-sonli qarorlari topshiriqlari ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi qarori bilan quyidagilar:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar hokimlariga hokim yordamchilari bilan birgalikda quyidagi, jumladan:

tomorqa xo‘jaliklari bilan agrosanoat klasterlari, tayyorlov, qayta ishlash va eksportyor korxonalarini jalb etgan holda kooperatsiya aloqalarini tashkil etishga ko‘maklashish;

aholi xonadonlarida, qoida tariqasida, 100 bosh parranda, 5-10 bosh kurka, 20

bosh quyon, 5-6 bosh qo‘y va echki, 5 ta asalari uyasi boqishni tashkil etish;

mahsulot yetkazib beruvchi va xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar ro‘yxatini shakllantirgan holda, joylarda «tarqatish va mahsulotlarni yig‘ib olish bo‘yicha mobil xizmatlar» faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

“xonadonbay” ishlash asosida hududlarning tuproq-iqlim sharoiti va hudud aholisining tajribasidan kelib chiqqan holda tomorqa xo‘jaliklarini “Bir mahalla-bir mahsulot” tamoyili asosida mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirish;

har bir mahallada kooperatsiya asosida parranda, quyonchilik, qo‘y-echkichilik, asalarichilik va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullanish istagini bildirgan yetakchi tadbirkorlarni aniqlash vazifalari yuklatilganligi;

b) Quyidagilar:

2022-yilda faoliyati klaster usulida tashkil etiladigan «Tomorqa xizmati» MCHJlar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

2022-yilda suv ta‘minoti og‘ir hududlardagi aholi tomorqalarini sug‘orish uchun vertikal sug‘orish quduqlarini ishga tushirish prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

s) Har bir tumanda Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda boshqa manfaatdor idoralarning mas‘ul xodimlaridan iborat (ish haqi saqlangan holda) xonadonlarda parrandachilikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan doimiy loyiha ofislarini tashkil etish belgilanganligi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N.B.Xusanov), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (B.T.Norqobilov), «Parrandasanoat» uyushmasi (B.I.Isaev), manfaatdor idoralar bilan birgalikda:

bir oy muddatda xonadonlarda parrandachilikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha loyiha ofislarini tashkil etish choralarini ko‘rish;

ikki oy muddatda hudud ehtiyojidan kelib chiqib, xonaki parrandalar naslchiligi korxonalarini tashkil etish;

2022-yilda joylardagi ehtiyojni o‘rganib va hududlarning iqlim sharoitidan kelib chiqib, Xitoy, Rossiya va boshqa mamlakatlardan xonaki parranda tuxumlarini olib kelish hamda aholiga tarqatish choralarini ko‘rish topshirilganligi;

d) Hokim yordamchilariga tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer

egalari kengashi, tomorqa yer egalari, «Tomorqa xizmati» MCHJ va boshqa tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan holda quyidagi vazifalar yuklatilganligi:

uyuma-uy yurish orqali tomorqa yer egalarining yer uchastkalaridan maqsadli va samarali foydalanilishini, shu jumladan, yerni tayyorlash, urug‘, ko‘chat va daraxtlar ekish, issiqxonalar qurish, chorva va parrandalarni ko‘paytirish holatini, ushbu qaror doirasida tomorqa yer egalari, «Tomorqa xizmati» MCHJ va boshqa tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarning maqsadli ishlatilishini, shuningdek, mazkur shaxslar o‘rtasidagi shartnoma munosabatlariga rioya etilishini davriy monitoring qilib borish;

tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, aholi tomorqalarini xizmatlar bilan qamrab olish darajasini oshirish, shuningdek, mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlarini yanada ko‘paytirish;

e) Quyidagilar:

-O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari Sh.M.G‘aniev, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi A.A.Xaitov, qishloq xo‘jaligi vaziri J.A.Xodjaevga:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va tumanlar hokimlari bilan birgalikda tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanilishi bo‘yicha ishlarni manzilli tashkil etish;

bir oy muddatda tomorqa yer egalari va kooperatsiyalarni mahsulot ishlab chiqarishning yangi texnologiyalariga o‘rgatish, kooperatsiya a‘zolarining yerlarida agrotexnik tadbirlar monitoringini o‘tkazish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning tashqi bozorlarda marketing tadqiqotlarini o‘tkazish bo‘yicha qisqa muddatli amaliy o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha reja ishlab chiqish;

bir oy muddatda tomorqa yerlarida kichik intensiv bog‘dorchilik, limonchilik va uzumchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha namunaviy texnologik xaritalarni, parranda, quyon, qo‘y va echki, asalari uyalari, intensiv usulda baliq boqish, shuningdek, ixcham issiqxonalar tashkil etish bo‘yicha texnologik tavsiyalarni ishlab chiqish va ushbu yo‘nalishlarda internet tarmog‘i orqali onlayn maslahat berib borilishini yo‘lga qo‘yish;

Tijorat banklari kreditni rasmiylashtirish jarayonida qarz oluvchilarning haqiqiy ehtiyojini aniqlash va kreditni qaytarish muddatlarini belgilashda texnologik

xarita va tavsiyalarni inobatga olish;

-Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (B.T.Norqobilov), «O‘zbekchorvanasl» agentligi (B.T.Atamuratov), «Parrandasanoat» uyushmasi (B.I.Isaev) bilan birgalikda bir oy muddatda har bir tumanda veterinariya xizmatlarini ko‘rsatish va ozuqa-yem tarqatish, aholini o‘qitish markazlarini tashkil etish;

-Bosh prokuratura (Sh.J.Raximov), Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (A.E.Burxanov), Hisob palatasi (B.T.Turabov) mazkur qaror doirasida ajratilayotgan mablag‘larning ochiqlik va oshkoralik tamoyili asosida maqsadli ajratilishi va sarflanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatish hamda har yarim yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib borish topshirilganligi;

f) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda har bir hududda ochiq va yopiq usulda sabzavot mahsulotlari yetishtirish hamda ularning eksportini rivojlantirish maqsadida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida loyihalar sonini ko‘paytirish uchun mahallalarda taqdimotlar va seminarlar o‘tkazilishini ta‘minlash topshirilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tumanda 2022-yilda suv ta‘minoti og‘ir hududlardagi aholi tomorqalarini sug‘orish uchun vertikal sug‘orish quduqlarini ishga tushirish prognoz ko‘rsatkichlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimi birinchi o‘rinbosari, Tuman hokimi o‘rinbosari I.Yunusov va hokim yordamchilariga quyidagi vazifalar yuklatilsin:

tomorqa xo‘jaliklari bilan agrosanoat klasterlari, tayyorlov, qayta ishlash va eksportyor korxonalarini jalb etgan holda kooperatsiya aloqalarini tashkil etishga ko‘maklashish;

aholi xonadonlarida, qoida tariqasida, 100 bosh parranda, 5-10 bosh kurka, 20 bosh quyon, 5-6 bosh qo‘y va echki, 5 ta asalari uyasi boqishni tashkil etish;

mahsulot yetkazib beruvchi va xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar ro‘yxatini shakllantirgan holda, joylarda “tarqatish va mahsulotlarni yig‘ib olish bo‘yicha mobil xizmatlar” faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

“xonadonbay” ishlash asosida hududlarning tuproq-iqlim sharoiti va hudud aholisining tajribasidan kelib chiqqan holda tomorqa xo‘jaliklarini “Bir mahalla-bir

mahsulot” tamoyili asosida mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirish;

har bir mahallada kooperatsiya asosida parranda, quyonchilik, qo‘y-echkichilik, asalarichilik va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullanish istagini bildirgan yetakchi tadbirkorlarni aniqlash.

5. Tuman hokimi birinchi o‘rinbosari, tuman bandlik va mehnat munosabatlari bo‘lim boshlig‘i M.Rustamov, tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘lim boshlig‘i F.Narimov, manfaatdor idoralar bilan birgalikda:

bir oy muddatda xonadonlarda parrandachilikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha loyiha ofislarini tashkil etish choralarini ko‘rsin;

ikki oy muddatda hudud ehtiyojidan kelib chiqib, xonaki parrandalar naslchiligi korxonalarini tashkil etsin;

2022-yilda joylardagi ehtiyojni o‘rganib va hududlarning iqlim sharoitidan kelib chiqib, Xitoy, Rossiya va boshqa mamlakatlardan xonaki parranda tuxumlarini olib kelish hamda aholiga tarqatish choralarini ko‘rsin.

6. Tuman hokim yordamchilar, tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi M.Abdullaev va tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan holda quyidagi vazifalar yuklatilsin:

uyma-uy yurish orqali tomorqa yer egalaring yurish uchastkalaridan maqsadli va samarali foydalanilishini, shu jumladan, yerni tayyorlash, urug‘, ko‘chat va daraxtlar ekish, issiqxonalar qurish, chorva va parrandalarni ko‘paytirish holatini, ushbu qaror doirasida tomorqa yer egalari, «Tomorqa xizmati» MCHJ va boshqa tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlarning maqsadli ishlatilishini, shuningdek, mazkur shaxslar o‘rtasidagi shartnoma munosabatlariga rioya etilishini davriy monitoring qilib borish;

tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, aholi tomorqalarini xizmatlar bilan qamrab olish darajasini oshirish, shuningdek, mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatlarini yanada ko‘paytirish.

7. Quyidagilar:

-Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi M.Abdullaev, tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi A.Seytimbetov:

tuman hokimi birinchi o‘rinbosari bilan birgalikda tomorqa yer uchastkalaridan samarali foydalanilishi bo‘yicha ishlarni manzilli tashkil etsin;

bir oy muddatda tomorqa yer egalari va kooperatsiyalarni mahsulot ishlab

chiqarishning yangi texnologiyalariga o'rgatish, kooperatsiya a'zolarining yerlarida agrotexnik tadbirlar monitoringini o'tkazish, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning tashqi bozorlarda marketing tadqiqotlarini o'tkazish bo'yicha qisqa muddatli amaliy o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha reja ishlab chiqsin;

bir oy muddatda tomorqa yerlarida kichik intensiv bog'dorchilik, limonchilik va uzumchilik, poliz, dukkakli, moyli ekinlar, kartoshka va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha namunaviy texnologik xaritalarni, parranda, quyon, qo'y va echki, asalari uyalari, intensiv usulda baliq boqish, shuningdek, ixcham issiqxonalar tashkil etish bo'yicha texnologik tavsiyalarni ishlab chiqish va ushbu yo'nalishlarda internet tarmog'i orqali onlayn maslahat berib borilishini yo'lga qo'ysin;

tuman tijorat bankl filiallari kreditni rasmiylashtirish jarayonida qarz oluvchilarning haqiqiy ehtiyojini aniqlash va kreditni qaytarish muddatlarini belgilashda texnologik xarita va tavsiyalarni inobatga olsin;

tuman hokimli o'rinbosari I.Yunusov, tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi F.Narimov, «Chorvanasl» bo'limi A.Yaxshimuratov bir oy muddatda har bir hududda veterinariya xizmatlarini ko'rsatish va ozuqa-yem tarqatish, aholini o'qitish markazlarini tashkil etsin.

8. Tuman hokimi o'rinbosari I.Yunusov, tuman fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi M.Abdullaev, Tuman qishloq xo'jaligi bo'limi A.Seytimbetov bilan birgalikda har bir hududda ochiq va yopiq usulda sabzavot mahsulotlari yetishtirish hamda ularning eksportini rivojlantirish maqsadida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida loyihalar sonini ko'paytirish uchun mahallalarda taqdimotlar va seminarlar o'tkazilishini ta'minlasin.

9. Tumandagi tegishli tashkilot va korhonalarga o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-dekabrda PQ-54-sonli qarorining 3-ilovasi bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga asosan muvofiqlashtirish topshirilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi moliya va iqtisodiyot va kambag'alikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari hamda tuman hokimi qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari zimmasiga yuklatilsin

Tuman hokimi



Avezov S. S.

Элликқалъа туман ҳокимининг  
2022 йил 25 январдаги  
22-13-194-Q/22-сон қарорига  
1-илова

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-dekabr kungi PQ-54-sonli qaroriga asosan 2022-yilda suv ta’minoti  
og‘ir hududlardagi aholi tomorqalarini sug‘orish va quduqlarini ishga tushirish**

**PROGNOZ KO‘RSATKICHLARI**

T/R	Tuman nomi	Mahallalar soni	Mahallalar nomi	Qaziladigan quduqlar soni	shundan:	
					kichik quduqlar soni	katta quduqlar soni
1	Ellikqal’a	1	Dumanqal'a MFY	1	1	
	Ellikqal’a			1	1	
	Ellikqal’a			1	1	
	X		X	3	3	
2	Ellikqal’a	1	Ayazqal'a MFY	1	1	
	Ellikqal’a			1	1	
	X		X	2	2	
3	Ellikqal’a	1	Sharq Yulduzi O'FY	1	1	
	Ellikqal’a			1	1	
	Ellikqal’a			1	1	
	X		X	3	3	



4	Ellikqal'a	1	Tuproqqal'a MFY	1	1	
	Ellikqal'a			1	1	
	Ellikqal'a			1	1	
	X		X	3	3	
5	Ellikqal'a	1	Qizilqum O'FY	1	1	
	Ellikqal'a			1	1	
	Ellikqal'a			1	1	
	X		X	3	3	
6	Ellikqal'a	1	Guliston O'FY	1	1	
	Ellikqal'a			1	1	
	Ellikqal'a			1	1	
	X		X	3	3	
7	Ellikqal'a	1	Qirqqizobod O'FY	1	1	
	Ellikqal'a			1	1	
	Ellikqal'a			1	1	
	X		X	3	3	
8	Ellikqal'a	1	Oq-oltin MFY	1	1	
	Ellikqal'a			1	1	
	Ellikqal'a			1	1	

	X		X	3	3	
9	Ellikqal'a	1	Yangi O'zbekiston MFY	1	1	
	Ellikqal'a			1	1	
	Ellikqal'a			1	1	
	X	X	X	3	3	
10	Ellikqal'a	1	Aqchako'l O'FY (yangiobod)	1	1	
	Ellikqal'a			1	1	
	Ellikqal'a			1	1	
	X	X	X	3	3	
11	Ellikqal'a	1	Qavatqal'a MFY	1	1	
	Ellikqal'a			1	1	
	X		X	2	2	
11	<b>Jami tuman</b>	<b>11</b>	<b>X</b>	<b>31</b>	<b>31</b>	